



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



**No11**  
**2025**

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,  
4-noyabr, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|   |     |
|---|-----|
| Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni .....   | 24  |
| <i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>  |     |
| Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari .....                                 | 27  |
| <i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>   |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati .....  | 30  |
| <i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>   |     |
| Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi .....  | 34  |
| <i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>   |     |
| Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv .....   | 38  |
| <i>Alinazarova Mahfuza</i>  |     |
| Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini .....         | 43  |
| <i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>  |     |
| Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar .....  | 48  |
| <i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>  |     |
| Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish .....                         | 53  |
| <i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>  |     |
| Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi .....      | 58  |
| <i>Ergasheva S. T.</i>  |     |
| Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish .....                               | 61  |
| <i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>   |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati .....  | 64  |
| <i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>  |     |
| Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish .....                    | 68  |
| <i>Hojikarimova Gulasal Tadjialiyevena</i>  |     |
| Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish .....  | 71  |
| <i>Jo'rayeva Matluba</i>  |     |
| Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari .....                           | 74  |
| <i>Komilova Z. X.</i>   |     |
| O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati .....  | 80  |
| <i>M. Yu. Mahkamova</i>   |     |
| Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari ..... | 86  |
| <i>Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna</i>   |     |
| Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes .....                                      | 90  |
| <i>Madina Tilavova</i>  |     |
| Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar .....  | 94  |
| <i>N. O. Saidova</i>  |     |
| Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli .....                 | 99  |
| <i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>   |     |
| Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli .....  | 103 |
| <i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>   |     |
| Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi .....   | 108 |
| <i>Oripova Zilola</i>   |     |
| Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi .....  | 113 |
| <i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>  |     |
| Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari .....                | 118 |
| <i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>  |     |
| Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri .....                    | 122 |
| <i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>  |     |



|  |     |
|--|-----|
| Blended Learning .....   | 125 |
| <b>Quvandikova Xadicha</b>   |     |
| Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish .....   | 129 |
| <b>Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li</b>   |     |
| “Qurilish jarayonlari texnologiyasi” fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish .....                | 135 |
| <b>Raxmonova Nazokat Umaraliyevna</b>  |     |
| Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli ..... | 140 |
| <b>Rustamova Nodira Rustamovna</b>   |     |
| Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari .....  | 145 |
| <b>Sitora Toshmatova</b>   |     |
| STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati .....                                   | 149 |
| <b>Tashibekova Munajat Xoshimovna</b>  |     |
| Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi .....   | 153 |
| <b>Toshpulatova Saida Kuzibaevna</b>   |     |
| Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish .....   | 158 |
| <b>Turdiyeva Shahzoda Eshdavlrat qizi</b>  |     |
| Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools .....   | 161 |
| <b>Ulasheva Lobar</b>  |     |
| Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish .....  | 164 |
| <b>Valiyeva Nargiza Athamboyevna</b>   |     |
| Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari .....                                     | 169 |
| <b>Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi</b>  |     |
| Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar .....   | 173 |
| <b>Xanbabayev Hakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li</b>  |     |
| Tasavvufdagi “muhosaba” va “tafakkur” amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi .....  | 176 |
| <b>Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich</b>  |     |
| Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati .....  | 182 |
| <b>Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna</b>  |     |
| Ota-ona mehriining bola psixologiyasiga ta'siri .....  | 185 |
| <b>Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi</b>   |     |
| Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi .....   | 189 |
| <b>Ahmedova Nargiza Muzaffarovna</b>   |     |
| Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам .....  | 193 |
| <b>Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна</b>                  |     |
| Структура и стратегии развития предметных компетенций .....  | 197 |
| <b>Наимова Мафтунабону Файзулложоновна</b>   |     |
| Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития .....  | 203 |
| <b>Раупова Шохида Ахроровна</b>  |     |
| Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы .....                          | 207 |
| <b>Сайфутдинова Насиба Нурматовна</b>  |     |
| Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы .....   | 211 |
| <b>Сулейманова Нилуфар Камилловна</b>  |     |
| O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni .....   | 214 |
| <b>Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi</b>  |     |
| Bolalarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari .....   | 218 |
| <b>Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi</b>  |     |
| Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari .....   | 221 |
| <b>Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna</b>  |     |
| Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari .....  | 224 |
| <b>Abduxalilova Iroda Nozimxonovna</b>   |     |

|  |  |
|--|--|
| <p style="writing-mode: vertical-rl; transform: rotate(180deg);">MUNDARIJA<br/>СОДЕРЖАНИЕ<br/>CONTENTS</p> | <p>O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda<br/>       "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari ..... 229<br/> <b>Abirova Umida Nazarovna</b></p> <p>Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars<br/>       mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari..... 232<br/> <b>Adhamova Diyora Sanjar qizi</b></p> <p>Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va<br/>       tiklanish mexanizmlari tahliliy ..... 239<br/> <b>Tangriyev Abdukarim Tovashevich</b></p> <p>Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini<br/>       takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati..... 244<br/> <b>Hafizov Shahriyor Shavkatovich</b></p> <p>Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari ..... 248<br/> <b>Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi</b></p> <p>Axborotning gnoseologik mohiyati..... 256<br/> <b>Kamolova Munajatxon Jaloldinovna</b></p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari ..... 259<br/> <b>Mamatova Aziza Bo'ribojevna</b></p> <p>Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari .... 262<br/> <b>Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich</b></p> <p>Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini<br/>       korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi..... 267<br/> <b>Maxkamova Dilafuz Aliyevna</b></p> <p>Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv ..... 271<br/> <b>Normamatova Kamola Gulmamat qizi</b></p> <p>O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida)..... 274<br/> <b>S. Sh. Azamatova</b></p> <p>Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari ..... 277<br/> <b>Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi</b></p> <p>Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari..... 282<br/> <b>Xolova Mohigul Shavkatovna</b></p> <p>Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish..... 287<br/> <b>Xudoyberganov Atham</b></p> <p>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish ..... 291<br/> <b>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi</b></p> <p>Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление ..... 295<br/> <b>Кадирова Наргиза Азаматовна</b></p> <p>Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов<br/>       на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка) ..... 298<br/> <b>Мамырбаева Дина</b></p> <p>Структура и стратегии развития предметных компетенций ..... 304<br/> <b>Наимова Мафтунабону Файзулложоновна</b></p> |
|--|--|



# TARBIYA FANINI O'QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Nazarova Nasiba Abdullayevna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
 (boshlang'ich ta'lim) magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada tarbiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga yangi imkoniyatlar olib kirib, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, mustaqil fikrlash qobiliyati va tarbiyaviy qadriyatlarga munosabatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida milliy va xalqaro tajribalar o'rganilib, raqamli platformalar va interaktiv metodlarning tarbiya fanida qo'llanishi o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishi ilmiy asosda yoritilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash tarbiyaviy jarayonlarda shaxsiy yondashuvni ta'minlaydi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytiradi hamda tarbiya fanining amaliy ahamiyatini oshiradi.

**Kalit so'zlar:** tarbiya fani, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, ta'lim samaradorligi, shaxsiy yondashuv, innovatsion pedagogika, motivatsiya, milliy qadriyatlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, ta'lim sifati.

**Abstract:** The article analyzes the effectiveness of using digital technologies in teaching the subject of "Education." Digital technologies introduce new opportunities into the educational process, enhancing students' learning performance, independent thinking skills, and attitudes toward moral and cultural values. During the research, both national and international experiences were examined. It was scientifically substantiated that the use of digital platforms and interactive methods in moral education increases students' learning motivation. The results show that the effective application of digital technologies ensures a personalized approach in educational processes, strengthens teacher–student interaction, and enhances the practical significance of the subject.

**Key words:** education, digital technologies, interactive methods, learning effectiveness, personalized approach, innovative pedagogy, motivation, national values, information and communication technologies, education quality.

**Аннотация:** В статье анализируется эффективность использования цифровых технологий в преподавании предмета "Воспитание". Цифровые технологии открывают новые возможности в образовательном процессе, способствуют повышению уровня усвоения знаний, развитию самостоятельного мышления и формированию отношения учащихся к воспитательным ценностям. В ходе исследования были изучены национальный и международный опыт, а также показано, что применение цифровых платформ и интерактивных методов в обучении воспитанию способствует повышению мотивации учащихся к обучению. Результаты исследования показали, что эффективное использование цифровых технологий обеспечивает индивидуальный подход в воспитательном процессе, усиливает взаимодействие между учителем и учеником и повышает практическую значимость предмета.

**Ключевые слова:** воспитание, цифровые технологии, интерактивные методы, эффективность обучения, индивидуальный подход, инновационная педагогика, мотивация, национальные ценности, информационно-коммуникационные технологии, качество образования.

## KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida ko'rilmogda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar jarayonida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini modernizatsiya qilish, o'qitish metodlarini yangilash va raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bunda nafaqat fanlarni o'qitish, balki tarbiyaviy jarayonlarni samarali tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki ta'lim jarayonining asosiy maqsadi – o'quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdir.

Tarbiya fani mazmuni va metodologiyasi jamiyatning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Bugungi kunda o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, axloqiy-me'yoriy tamoyillarga rioya qilishga o'rgatish jarayonida raqamli

texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. Chunki an'anaviy ta'lim metodlari o'z samaradorligini saqlab qolgan bo'lsa-da, zamonaviy yoshlar uchun interaktiv va raqamli vositalar ko'proq qiziqish uyg'otmoqda.

O'quvchilarning bilim olish jarayonida motivatsiyasini oshirish, ularni faol ishtirok etishga undash uchun raqamli vositalardan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Masalan, multimediya materiallari, onlayn ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar tarbiya darslarini yanada jonli va samarali qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar orqali tarbiya fanini o'qitishda differensial yondashuv amalga oshiriladi, ya'ni o'quvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari hisobga olinadi.

Bugungi kunda xalqaro tajribada raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishning asosiy vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlarda ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqda va bu mamlakatlarda o'quvchilarning kreativ tafakkuri, mustaqil fikrlashi hamda ijtimoiy faolligi yuqori darajada rivojlangan. O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda katta qadamlar tashlamoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim sohasini to'liq raqamlashtirish, barcha fanlarda, jumladan, tarbiya fanida ham raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish vazifalari belgilangan.

Shunday qilib, kirish qismida ta'kidlab o'tish mumkinki, raqamli texnologiyalar tarbiya fanini o'qitishda nafaqat qo'shimcha vosita, balki ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, ularning imkoniyatlarini ilmiy asosda o'rganish va amaliyotga tatbiq etish zamonaviy ta'limning dolzarb vazifasidir.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik adabiyotlarda raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi roli keng o'rganilgan. J. Dewey o'zining pragmatik ta'lim konsepsiyasida o'quvchilarning bilim olish jarayonini hayotiy tajriba bilan bog'lash zarurligini ta'kidlab, ta'limda faol ishtirokni ta'minlaydigan vositalardan foydalanish g'oyasini ilgari surgan. L. S. Vygotskiy esa ta'lim jarayonida ijtimoiy muhit va vositalarning ahamiyatini ko'rsatib, zamonaviy texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishini qayd etgan.

Bloom taksonomiyasi ham raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'shishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki o'quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishda raqamli vositalar samarali yordam beradi: bilim olish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash bosqichlarida multimediya, virtual mashg'ulotlar hamda test tizimlaridan foydalanish mumkin.

O'zbekistonlik olimlar – R. Rasulova, H. Yuldashev va B. Saidovlarning tadqiqotlarida tarbiya fanini o'qitishda interaktiv metodlarning o'rni va ahamiyati asoslab berilgan. Ularning fikricha, tarbiyaviy jarayonlarda raqamli texnologiyalar qo'llanilganda o'quvchilarda milliy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabat shakllanadi, shuningdek, ularning ijodkorligi va tashabbuskorligi ortadi.

Xalqaro miqyosda esa raqamli ta'lim texnologiyalarini qo'llashda Finlyandiya va Estoniya tajribalari alohida e'tiborga loyiq. Ushbu mamlakatlarda ta'lim jarayonida har bir o'quvchi uchun individual raqamli profil yaratilgan bo'lib, tarbiyaviy darslarda ham o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini kuzatish imkoniyati mavjud.

Shuningdek, UNESCO va OECD tomonidan ta'limda raqamli texnologiyalarning roli bo'yicha tayyorlangan hisobotlarda ularning tarbiyaviy jarayonlarda ham ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutishi ta'kidlangan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni tarbiya fanida qo'llash ilmiy asoslangan bo'lib, ular ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida pedagogik kuzatish, tajriba-sinov, statistik tahlil va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Avvalo, tarbiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonlari kuzatilib, o'quvchilarning faolligi, bilim o'zlashtirish darajasi va dars jarayonidagi ishtiroki aniqlab borildi. Pedagogik kuzatishlar asosida raqamli vositalar ta'sirida o'quvchilarning motivatsiyasi va ijtimoiy faolligidagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

Tajriba-sinov bosqichida darslarda interaktiv doskalar, elektron testlar, onlayn platformalar (Google Classroom, Moodle), multimediya taqdimotlari va virtual muhitlardan foydalanildi. Ushbu vositalarning samaradorligi an'anaviy o'qitish metodlari bilan qiyoslab o'rganildi.

Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi o'rtacha 30–35 foizga, mustaqil topshiriqlarni bajarish ko'rsatkichlari esa 25 foizga oshgan. Qiyosiy tahlil esa raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim samaradorligi an'anaviy yondashuvga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanini isbotladi.



Metodologiyaning asosiy yondashuvi shundan iboratki, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonida nafaqat bilim berish vositasi, balki tarbiyaviy jarayonlarni individuallashtiruvchi omil sifatida ham xizmat qiladi. Ya'ni, o'quvchilar o'z qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda raqamli vositalar orqali bilim olish, tarbiyaviy qadriyatlarini o'zlashtirish va shaxsiy rivojlanishni amalga oshirish imkoniga ega bo'ladilar.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiya fanida raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasini kuchaytiradi, dars jarayonini jonlantiradi va tarbiyaviy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Raqamli vositalar yordamida tashkil etilgan interaktiv muhokamalar o'quvchilarda muloqot madaniyati, jamoada ishlash ko'nikmalari va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Virtual simulyatsiyalar orqali esa o'quvchilar axloqiy tanlov vaziyatlarida mustaqil qaror qabul qilishni o'rgandilar, bu esa tarbiya fanining amaliy ahamiyatini yanada kuchaytirdi.

Elektron testlar va onlayn monitoring tizimlari o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashda aniq, tezkor va obyektiv natijalar olish imkonini berdi. Shu bilan birga, raqamli platformalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamladi – o'quvchilar darsdan tashqari vaqtda ham onlayn aloqa vositalari orqali o'qituvchi bilan muloqotda bo'lish, maslahat olish va topshiriqlarni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Eng muhim jihatlardan biri shundaki, raqamli texnologiyalar tarbiya fanida individual yondashuvni ta'minladi. Har bir o'quvchi o'zining qiziqishi, ehtiyoji va qobiliyatiga mos topshiriqlarni bajarish imkoniga ega bo'ldi. Bu esa ta'lim jarayonining shaxsga yo'naltirilganligini kuchaytirib, umumiy ta'lim samaradorligini oshirdi.

## XULOSA VATAKLIFLAR

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, raqamli texnologiyalar tarbiya fanini o'qitishda samaradorlikni oshirishning muhim vositasiga aylangan. Ular o'quvchilarning bilim olish jarayonida motivatsiyasini kuchaytiradi, tarbiyaviy jarayonni jonlantiradi va o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini mustahkamlaydi.

Kelgusida tarbiya fanida raqamli texnologiyalardan yanada samarali foydalanish uchun quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- ta'lim dasturlarini raqamli platformalar bilan integratsiya qilish;
- milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi multimediyali materiallarini ishlab chiqish;
- o'qituvchilarni raqamli pedagogika bo'yicha qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- sifat nazorati tizimini raqamlashtirish.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar tarbiya fanining nazariy va amaliy ahamiyatini oshirib, o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 430 p.
2. Vygotsky L. S. Mind in Society. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 256 p.
3. Bloom B. S. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 1956. – 207 p.
4. Rasulova R. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish. – Toshkent: Fan, 2020. – 278 b.
5. Yuldashev H. Pedagogik innovatsiyalar va ularning samaradorligi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2019. – 312 b.
6. Saidov B. Tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 290 b.
7. OECD. The Future of Education and Skills. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 312 p.
8. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals. – Paris: UNESCO, 2017. – 300 p.
9. Estoniya Ta'lim vazirligi hisobotlari. – Tallin, 2021.
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ma'lumotlari. – Toshkent, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.